

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2026 №2 (33)



ISSN 2181-9505

Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan

Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT

XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL

2026 №2 (33)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.

Журнал выходит 4 раза в год.

The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” international journal

Tahrir kengashi Abdildina, R.J. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Mamedzade, I.R. – Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, falsafa fanlari doktori, professor Skarantino, L.M. – DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. – Rossiya FA akademigi, Rossiya falsafa jamiyati, falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. – Rossiya FA Falsafa instituti professori, falsafa fanlari doktori (Rossiya) Muassislar: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O‘zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers MCHJ Elc.uz Ro‘yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.	Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Bosh muharrir o‘rinbosari: Aslanova, R. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas’ul muharrir: Muhamedova, Z.M. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tahrir hay’ati: Allahyarova, T., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., – s.f.d., professor (Qozog‘iston) Abasov, A.S., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Axamer, G. – f.f.d., professor (Avstriya) Buzarinejad, Y. – f.f.d., professor (Eron) Bilalov, M.I., – f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Gezalov, A.A., – f.f.n., professor (Rossiya) Kerimov, E. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Kurmangalieva, G. K., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Kurbonova, L.A. – f.f.d.DSc, dotsent (O‘zbekiston) Lazarevich, A.A. – f.f.d., professor (Belorus) Olatunji, Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Paxruddinov, Sh.I. – s.f.d., professor (O‘zbekiston) Pardayev, S. – falsafa doktori (PhD), (O‘zbekiston) Sergeev, M.Y., – professor (AQSh) Sagikizi, A. – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Tulenova, G. J – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tesdelen, Vefa, – f.f.d., professor (Turkiya) Tyukmaeva A.M. – falsafa doktori PhD (O‘zbekiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Xudoydodzoda, F.B., – f.f.d., professor (Tojikiston) Xudoyberganov, R. – f.f.d.DSc, (O‘zbekiston) Mahmadizoda, N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. H – falsafa doktori (PhD), professor (Turkiya) Urmanbetova, J.K., – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Chjan Baychun, – f.f.d., professor (Xitoy) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. – (O‘zbekiston) Po‘latov A. – (O‘zbekiston)
--	---

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Inaqov Qudratjon Qadirjonovich	MEDIASAVODXONLIK VA MA'NAVİY REFLEKSIYANING YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY BILISH MEXANIZMLARI SIFATIDAGI AHAMIYATI	9-20
Sapayev Valisher Odilbek o'g'li	RAQAMLI GEOSIYOSIY MAKONNING MAFKURAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDAGI O'RNI	21-35
Seytalieva Nurzada Tugolbekovna	MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MILLIY MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOİY ONGGA TA'SIRI	36-45
Usmonov Saidikromxo'ja Saidalieвич	KIBERZO'ROVONLIK VA KIBERBULLINGNING IJTIMOİY VOQELIK SIFATIDAGI MOHIYATI	46-56

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Seytaxmedova Natalya Lvovna	DINIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA YOSHLARNING MA'NAVİY-AXLOQIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	57-65
Qurbonova Lola Abdixodimovna	JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ELITAR TARBIYANING IJTIMOİY-FALSAFIY ASOSLARI VA UNING INTELLEKTUAL ELITA SHAKLLANISHIDAGI ROLI	66-76
Xidirov Mustaf o Toyirqulovich	ZAMONAVIY FAN TARAQQIYOTIDA BILIM VA FAOLIYATNING O'ZGARUVCHANLIGI VA DAVR RUHI BILAN INTEGRATSIYASI	77-86

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI

Oni Maykl Olatunji	SARTR GUMANIZMI AFRIKADA MADANIY IDEALLAR TRANSFORMATSIYASI UCHUN IMPERATIV SIFATIDA	87-98
Mayliyev Azamat Farxod o'g'li	STRATEGIK TAFAKKUR VA IJTIMOİY MAS'ULIYATNING IJTIMOİY-FALSAFIY ASOSLARI	99-109

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Ademola, Julius Olajide	GERASALIK JIN CHALINGAN KISHINING SHIFO TOPISHI GERMENEVTIKASI: CHRIST APOSTOLIC CHURCH, IBADAN, NIGERIYA MISOLIDA	110-122
Akinnavo Yetunde Abolaji, Deji Isaac Ayegboyin	NIGERIYADAGI AFRIKA PENTEKOSTALIZMIDA IDENTIFIKATSIYANING MA'NAVİY GRAMMATIKASI	123-136
Ganjiyev Shuxratjon Jurayevich	HARBIY XIZMATCHILAR MA'NAVİY DUNYOQARASHIDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL OMMAVIY MADANIYAT TA'SIRINING IJTIMOİY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI	137-149
Tulyayev Avazbek Ilhomovich	SUN'IY INTELLEKT VA ZAMONAVIY JAMIYAT AXLOQIY ONGGINING TRANSFORMATSIYASI	150-160

**SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI /
ФИЛОСОФИЯ ПОЛИТИКИ И ОБЩЕСТВА /
PHILOSOPHY OF POLITICS AND SOCIETY**

УДК: 37.013:316.77:17.022.1

 10.5281/zenodo.20717367

Inaqov Qudratjon Qadirjonovich

falsafa doktori (PhD)

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti

xalqaro ishlar boʻyicha prorektori

k.inakov@nuu.uz

(Toshkent, Oʻzbekiston)

**MEDIASAVODXONLIK VA MA'NAVY REFLEKSIYANING YOSHLAR
MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY
BILISH MEXANIZMLARI SIFATIDAGI AHAMIYATI**

Annotatsiya. Axborot makonida turli mafkuraviy ta'sirlar kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayrim olimlar mediasavodxonlik yoshlarning intellektual salohiyatini oshirib, ularning axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar. Boshqa tadqiqotchilar esa nazoratsiz raqamli muhit yoshlarda ma'naviy befarqlik va mafkuraviy ta'sirchanlikni kuchaytirishi mumkinligini qayd etadilar. Shu bois ushbu maqolada mediasavodxonlik va ma'naviy refleksiyaning yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishdagi bilish mexanizmlari sifatidagi o'zni ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: mediasavodxonlik, ma'naviy refleksiya, mafkuraviy immunitet, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, raqamli jamiyat.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot makoni jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Internet texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va turli raqamli platformalar inson tafakkuri, dunyoqarashi hamda qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlarning ongiga yo'naltirilayotgan turli mafkuraviy ta'sirlar, manipulyativ axborotlar va ommaviy madaniyat unsurlari ularning ma'naviy barqarorligiga jiddiy ta'sir etmoqda. Shu jihatdan yoshlar mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalasi zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mafkuraviy immunitet jamiyat va shaxsning zararli g'oyalar, buzg'unchi mafkuralar hamda axborot tahdidlariga qarshi ongli ravishda qarshilik ko'rsatish qobiliyatini anglatadi. Ushbu jarayonda tanqidiy fikrlash, mustaqil mushohada yuritish va axborotni tahlil qilish ko'nikmalari muhim o'rin

egallaydi. Chunki zamonaviy axborot oqimida haqqoniy va yolgʻon maʼlumotlarni farqlash, manipulyativ taʼsirlarni anglash hamda ularga nisbatan ongli munosabat bildirish yoshlarning intellektual salohiyatiga bogʻliqdir. Medi savodxonlik yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qiluvchi eng muhim kognitiv vositalardan biri sifatida talqin qilinmoqda. U insonning media mahsulotlarini tahlil qilish, axborot manbalarining ishonchliligini baholash va media kontentning yashirin maqsadlarini anglash qobiliyatini shakllantiradi. Shu sababli medi savodxonlik nafaqat texnik koʻnikma, balki maʼnaviy va mafkuraviy barqarorlikni taʼminlovchi ijtimoiy-falsafiy mexanizm sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Maʼnaviy refleksiya esa shaxsning oʻz ichki dunyosi, qadriyatlari va axloqiy mezonlari ustida mushohada yuritish jarayonidir. U insonda oʻz-oʻzini anglash, maʼnaviy javobgarlik hissini rivojlantirish hamda turli yot gʻoyalarga nisbatan ongli pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlarning maʼnaviy refleksiyasi rivojlangan sari ularda ijtimoiy voqelikni chuqurroq anglash va maʼnaviy tahdidlarga nisbatan barqaror munosabat shakllanadi. Shu bois mazkur maqolada medi savodxonlik va maʼnaviy refleksianing yoshlar mafkuraviy immunitetini rivojlantirishdagi oʻrni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning tanqidiy fikrlashni shakllantirish, axborot xavfsizligini taʼminlash hamda yoshlarni destruktiv mafkuraviy taʼsirlardan himoya qilishdagi ahamiyati ochib beriladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

XX asrning oxiri va XXI asrda Yoshlar mafkuraviy immunitetini rivojlantirishda mediasavodxonlik va maʼnaviy refleksianing oʻrni bilan bogʻliq ilmiy-nazariy manbalar nashr etilgan. Tadqiqot jarayonida xorijiy, rus, turk va oʻzbek olimlarining media madaniyati, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi hamda maʼnaviy tarbiya masalalariga oid ilmiy qarashlaridan foydalanildi. Xususan, Marshall McLuhan, Henry Jenkins, Neil Postman, Aleksandr Fyudorov, Ihsan Çapcıoğlu, Erkin Yusupov kabi olimlarning ilmiy asarlari tadqiqotning nazariy manbasi sifatida oʻrganildi. Xorijiy mualliflarning ilmiy qarashlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinganda, Marshall McLuhan media vositalarini inson tafakkurini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qiladi [McLuhan, 1964, b. 31]. Henry Jenkins esa raqamli madaniyat sharoitida yoshlarning interaktiv media faolligiga alohida urgʻu beradi [Jenkins, 2006, b. 52]. Neil Postman ommaviy media vositalari insonning chuqur mushohada yuritish qobiliyatini zaiflashtirishi mumkinligini qayd etadi [Postman, 1985, b. 63]. Rus olimi Александр Фёдоров mediasavodxonlikni shaxsning axborotni tanqidiy qabul qilish kompetensiyasi bilan bogʻlaydi [Фёдоров, 2007, b. 41]. Ushbu qarashlar mediasavodxonlikning nafaqat texnologik, balki maʼnaviy va mafkuraviy mazmunga ega ekanligini koʻrsatadi. Biroq ayrim tadqiqotchilarning media erkinligini mutlaq ijobiy hodisa sifatida talqin qilishi bahsli hisoblanadi. Jumladan, Henry Jenkins tomonidan ilgari surilgan “ishtirokchi madaniyat” konsepsiyasida raqamli makonning salbiy mafkuraviy taʼsirlari yetarli darajada yoritilmagan [Jenkins, 2006, b. 78]. Chunki ochiq media muhiti yoshlarning turli manipulyativ axborotlar va destruktiv

g'oyalarga duch kelish xavfini ham kuchaytiradi. Shu sababli mediasavodxonlikni faqat texnologik imkoniyat sifatida emas, balki ma'naviy mas'uliyat bilan uyg'un holda baholash lozim. Shu bilan birga, Aleksandr Fedorovning media ta'limga oid qarashlari yoshlarni tanqidiy fikrlash asosida tarbiyalash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Olim mediasavodxonlikni axborot xurujlariga qarshi intellektual himoya vositasi sifatida baholaydi [Фёдоров, 2007, b. 57]. Mazkur yondashuv yoshlarning media makondagi faolligini ongli ravishda boshqarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. O'zbek olimlarining ilmiy qarashlarida ham ma'naviy tarbiya va mafkuraviy barqarorlik masalalari ustuvor yo'nalish sifatida talqin etiladi. Xususan, Erkin Yusopov ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishda milliy qadriyatlar va mustaqil tafakkurning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi [Юсупов, 2019, b. 112]. N.Komilov esa ma'naviy refleksiyaning insonning ichki kamolotini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholaydi [Комилов, 2017, b. 89]. Ushbu qarashlar yoshlar mafkuraviy immunitetini rivojlantirishda ma'naviy omillarning muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil metodi orqali xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari o'zaro taqqoslandi. Mazkur metod mediasavodxonlik va ma'naviy refleksiya tushunchalarining umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, tarixiylik va mantiqiylik metodlari asosida mazkur tushunchalarning shakllanish evolyutsiyasi ham tahlil qilindi. Bundan tashqari, tadqiqotda kontent-tahlil, tizimli yondashuv va interpretativ tahlil metodlaridan foydalanildi. Kontent-tahlil orqali media makondagi mafkuraviy ta'sirlar mazmuni o'rganildi, tizimli yondashuv yordamida mediasavodxonlik va ma'naviy refleksiyaning o'zaro bog'liqligi ochib berildi. Interpretativ metod esa olimlarning ilmiy qarashlarini falsafiy jihatdan sharhlash va ularning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash imkonini yaratdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda mediasavodxonlik yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar, internet kommunikatsiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida insoniyat hayotida axborot oqimi keskin ortdi. Ayniqsa, yoshlar virtual makonning eng faol qatlamiga aylanganligi sababli ular turli xil media ta'sirlarga ko'proq duch kelmoqda. Shu jihatdan mediasavodxonlik yoshlarning axborotni tanlash, tahlil qilish, baholash va undan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantiruvchi muhim kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Marshall McLuhan media vositalarining jamiyat tafakkuriga ta'siri masalasiga alohida e'tibor qaratib, "media bu xabarning o'zidir" degan mashhur konsepsiyani ilgari suradi [McLuhan, 1964, b. 9]. Olimning fikricha, media insonning voqelikni qabul qilish shaklini o'zgartiradi va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylanadi. Darhaqiqat, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, video platformalar va sun'iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari yoshlarning fikrlash uslubiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, "TikTok", "Instagram" yoki "YouTube"

platformalaridagi qisqa videolar yoshlarning diqqatni uzoq muddat bir nuqtaga jamlash qobiliyatini pasaytirayotgani haqida qator tadqiqotlarda fikrlar ilgari surilmoqda. Natijada axborotni tez va yuzaki qabul qilish odati shakllanmoqda. Mediasavodxonlikning asosiy vazifalaridan biri yoshlarni axborotni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatishdan iboratdir. Chunki zamonaviy media makonida haqqoniy va manipulyativ axborotlarni ajratish tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, "feyk news", dezinformatsiya va sun'iy ravishda yaratilgan media kontentlarning ko'payishi yoshlar tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Neil Postman ommaviy media vositalari insonning chuqur tahliliy tafakkurini zaiflashtirib, uni ko'ngilochar axborot iste'molchiga aylantirib qo'yishi mumkinligini ta'kidlaydi [Postman, 1985, b. 71]. Ushbu qarash bugungi "raqamli tezkorlik" sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ko'plab yoshlar axborotning mazmun-mohiyatidan ko'ra uning vizual jozibadorligiga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Shuningdek, mediasavodxonlik yoshlarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Henry Jenkins zamonaviy media muhitida yoshlarning nafaqat axborot iste'molchisi, balki media mahsulotlarini yaratuvchi subyektga aylanganini qayd etadi [Jenkins, 2006, b. 42]. Bu esa yoshlarning kommunikativ faolligini oshirish bilan birga, ularda axborot uchun mas'uliyat hissini ham shakllantiradi. Masalan, bugungi kunda ko'plab yoshlar blog yuritish, podkast yaratish yoki ijtimoiy tarmoqlarda kontent tayyorlash bilan shug'ullanmoqda. Bunday jarayonlar ularda ijodiy tafakkur, kommunikativ kompetensiya va axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Biroq media makonning cheksiz imkoniyatlari bilan bir qatorda uning salbiy jihatlari ham mavjud. Algoritmik boshqaruv tizimlari ko'pincha insonning qiziqishlariga mos axborotlarni taklif qilish orqali uni "axborot pufagi" ichida qoldirib qo'ymoqda. Natijada yoshlar turli nuqtai nazarlar bilan emas, balki faqat o'z qarashlariga mos axborotlar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa tanqidiy tafakkurning torayishiga va mafkuraviy biryoqlamalilikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan mediasavodxonlik yoshlarda ochiq fikrlash, muqobil qarashlarni tahlil qilish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiruvchi muhim ta'limiy vosita hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida mediasavodxonlikni rivojlantirish yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishning samarali usullaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki mediasavodxon shaxs axborotning maqsadi, manbasi va yashirin ta'sir mexanizmlarini anglay oladi. Natijada u manipulyativ g'oyalar, yolg'on targ'ibot va zararli media oqimlariga nisbatan ongli qarshilik ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli mediasavodxonlik yoshlar tafakkurining barqarorligini ta'minlash, ularning ma'naviy va mafkuraviy immunitetini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida axborot makoni inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari va virtual kommunikatsiya vositalari axborot almashinuvini tezlashtirib, jamiyat taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Biroq raqamli muhitning kengayishi bilan bir qatorda turli mafkuraviy tahdidlar, axborot

xurujlari va manipulyativ ta'sirlar ham kuchayib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar internet makonining eng faol ishtirokchisi sifatida mazkur tahdidlarga nisbatan ko'proq ta'sirchan qatlam hisoblanadi. Shu jihatdan raqamli muhitning yoshlar ongi va tafakkuriga ta'sirini chuqur tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Henry Jenkins raqamli kommunikatsiya sharoitida zamonaviy jamiyatni "ishtirokchi madaniyat" sifatida tavsiflaydi [Jenkins, 2006, b. 53]. Uning fikricha, yangi media muhiti insonlarni faqat axborot iste'molchisi emas, balki kontent yaratuvchi subyektga ham aylantirmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali turli axborotlar tarqatmoqda, bloglar yuritmoqda va virtual muhitda ijtimoiy faollik namoyon etmoqda. Bu holat ijobiy jihatdan yoshlarning ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirsa, salbiy tomondan nazoratsiz axborot tarqalishi va manipulyativ ta'sirlarning kuchayishiga ham sabab bo'lmoqda. Raqamli muhitdagi asosiy muammolardan biri dezinformatsiya va "feyk" axborotlarning tez tarqalishidir. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda emotsional ta'sirga ega bo'lgan xabarlar haqqoniy axborotlarga nisbatan tezroq ommalashmoqda. Neil Postman ommaviy media inson tafakkurini soddalashtirib, uni tezkor va yuzaki axborot qabul qilishga moslashtirishini ta'kidlaydi [Postman, 1985, b. 79]. Uning mazkur fikri raqamli muhit sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki yoshlar ko'p hollarda axborotning haqqoniyligini tekshirmasdan uni tarqatishga moyil bo'lmoqda. Bu esa turli mafkuraviy manipulyatsiyalar va yot g'oyalarning keng tarqalishiga zamin yaratmoqda.

Zamonaviy raqamli platformalarda algoritmlar orqali inson qiziqishlariga mos axborotlarning tanlab berilishi ham mafkuraviy xavflarni kuchaytirmoqda. Chunki bunday tizimlar insonni ma'lum bir qarashlar doirasida ushlab turib, uning muqobil fikrlar bilan tanishish imkoniyatini cheklaydi. Natijada "axborot pufagi" hosil bo'lib, yoshlarda biryoqlama tafakkur shakllanishi mumkin. Masalan, ayrim ijtimoiy tarmoqlarda radikal g'oyalarni targ'ib qiluvchi kontentlar aynan algoritmlar orqali keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Bu esa yoshlarning mafkuraviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aleksandr Fyodorov mediata'lim insonni axborot tahdidlaridan himoya qiluvchi intellektual vosita ekanligini ta'kidlaydi [Фёдоров, 2007, b. 58]. Olimning fikricha, mediasavodxonlik insonda axborotni tanqidiy tahlil qilish, manbalarni tekshirish va media matnlarni anglash qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa raqamli muhitdagi mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yevropa davlatlari va AQSH ta'lim tizimida faktcheking, mediamatn tahlili va axborot xavfsizligiga oid maxsus dasturlar joriy qilinmoqda. Bunday yondashuv yoshlarning raqamli madaniyatini yuksaltirish bilan birga ularning mafkuraviy immunitetini ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu sababli raqamli muhitda yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash va ularni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda mediasavodxonlik muhim ahamiyatga ega. Mediasavodxon shaxs axborotning maqsadi, manbasi va yashirin ta'sir mexanizmlarini anglay oladi. Natijada u manipulyativ axborotlar, dezinformatsiya va yot g'oyalarga nisbatan ongli munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Demak, raqamli muhitda mediasavodxonlikni rivojlantirish yoshlar mafkuraviy immunitetini mustahkamlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish jarayoni bevosita tanqidiy fikrlash va ma'naviy refleksiya bilan bog'liqdir. Chunki inson turli axborot oqimlari, mafkuraviy ta'sirlar va virtual kommunikatsiyalar qurshovida yashayotgan hozirgi davrda har qanday ma'lumotni ongli ravishda tahlil qilish ehtiyoji ortib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlarning eng faol foydalanuvchilari sifatida turli xil g'oyaviy ta'sirlarga ko'proq duch kelmoqda. Shu sababli tanqidiy fikrlash ularda axborotni mantiqiy baholash, dalillarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirsa, ma'naviy refleksiya insonning ichki qadriyatlari, axloqiy mezonlari va ma'naviy mas'uliyatini anglashiga xizmat qiladi. John Dewey tanqidiy fikrlashni insonning muammoni chuqur mushohada qilish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish qobiliyati sifatida talqin qiladi [Dewey, 1933, b. 17]. John Deweyning fikricha, insonning mustaqil tafakkuri jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Mazkur qarash bugungi axborot makonida ayniqsa dolzarbdir. Chunki zamonaviy media muhitida yolg'on axborotlar, manipulyativ kontent va hissiy ta'sirga asoslangan targ'ibot materiallari keng tarqalmoqda. Masalan, ayrim ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri ma'lumotlarning tez ommalashuvi yoshlarning voqelikka nisbatan noto'g'ri tasavvurlar hosil qilishiga sabab bo'lmoqda. Shu jihatdan tanqidiy fikrlash yoshlarni axborotni tekshirish va asoslangan qaror qabul qilishga o'rgatuvchi muhim intellektual vosita hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashning samaradorligi ma'naviy refleksiya bilan uyg'unlashgandagina yanada kuchayadi. Paulo Freire insonning ongli tafakkuri uning ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyat hissi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [Freire, 1970, b. 66]. Uning fikricha, inson faqat axborotni qabul qiluvchi emas, balki uni anglovchi va baholovchi subyekt sifatida shakllanishi kerak. Ushbu qarash ma'naviy refleksianing mohiyatini ochib beradi. Chunki ma'naviy refleksiya insonning o'z ichki dunyosi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy pozitsiyasini tahlil qilish jarayonidir. Natijada shaxs turli yot g'oyalarga nisbatan mustaqil va ongli munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zamonaviy raqamli makonda hissiy manipulyatsiya texnologiyalarining kuchayishi tanqidiy fikrlash va ma'naviy refleksianing ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayrim media mahsulotlari insonning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatish orqali uning ongini boshqarishga urinmoqda. Ayniqsa, sensatsion sarlavhalar, sun'iy ravishda kuchaytirilgan qo'rquv yoki nafrat uyg'otuvchi axborotlar yoshlar ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Neil Postman ommaviy media insonni chuqur tafakkurdan uzoqlashtirib, uni ko'ngilochar axborot iste'molchiga aylantirib qo'yishi mumkinligini qayd etadi [Postman, 1985, b. 92]. Ushbu holat yoshlarning tahliliy tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning ma'naviy barqarorligini zaiflashtirishi ehtimolini kuchaytiradi. Shuningdek, ma'naviy refleksiya yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Inson o'z ma'naviy dunyosi ustida mushohada yuritgan sari unda axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy burch va vatanparvarlik kabi tuyg'ular mustahkamlanadi. Ayniqsa,

globalashuv sharoitida turli madaniy va mafkuraviy ta'sirlarning kuchayishi yoshlarda o'zlikni anglash ehtiyojini yanada oshirmoqda. Shu jihatdan ma'naviy refleksiya yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Aleksandr Fyodorov media ta'limning asosiy vazifalaridan biri insonda tanqidiy tafakkurni shakllantirish ekanligini ta'kidlaydi [Фёдоров, 2007, b. 73]. Olimning fikricha, mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash uyg'unligi insonni axborot manipulyatsiyasidan himoya qiluvchi samarali vositadir. Mazkur qarash Zamonaviy ta'lim tizimi uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki zamonaviy ta'lim faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, yoshlarda mustaqil tafakkur, ma'naviy mas'uliyat va ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishni ham nazarda tutishi kerak. Demak, tanqidiy fikrlash va ma'naviy refleksiya yoshlar mafkuraviy immunitetining o'zaro bog'liq ikki muhim komponenti hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash axborotni mantiqiy tahlil qilish imkonini bersa, ma'naviy refleksiya insonning ichki qadriyatlari va axloqiy mezonlarini mustahkamlaydi. Ularning uyg'unligi yoshlarning axborot tahdidlariga qarshi ongli qarshilik ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirib, barqaror va mustaqil tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Axborotlashgan jamiyatda media ta'lim yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlar va manipulyativ axborotlardan himoya qiluvchi muhim ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining asosiy kommunikativ maydoniga aylandi. Natijada yoshlar ongiga turli g'oyalar, qadriyatlar va mafkuraviy ta'sirlarning kirib borish sur'ati kuchaydi. Shu sababli media ta'lim yoshlarni axborotni tanqidiy qabul qilish, uni tahlil etish hamda manipulyativ ta'sirlarni anglashga o'rgatuvchi muhim vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Renee Hobbs mediasavodxonlikni insonning axborotni izlash, tahlil qilish, yaratish va baholash qobiliyati bilan bog'laydi [Hobbs, 2011, b. 21]. Renee Hobbsning fikricha, media ta'lim demokratik jamiyatda ongli fuqarolik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, raqamli makonda yoshlar ko'pincha ulkan axborot oqimi ichida qolmoqda va ular har doim ham ishonchli hamda manipulyativ axborotni ajrata olmayapti. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ayrim yolg'on xabarlar yoki sun'iy ravishda kuchaytirilgan axborot kampaniyalari yoshlarning ijtimoiy qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan media ta'lim yoshlarni axborot xavfsizligini ta'minlashga tayyorlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

W. James Potter esa media savodxonlikni insonning media ta'sirlarini anglash va ularga ongli ravishda munosabat bildirish qobiliyati sifatida tavsiflaydi [Potter, 2013, b. 34]. Olimning fikricha, media inson tafakkuriga yashirin tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkin va shuning uchun insonda media xabarlarini tahlil qilish ko'nikmasi shakllanishi zarur. Ushbu qarash ayniqsa yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirish nuqtai nazaridan muhimdir. Chunki turli reklama, siyosiy targ'ibot yoki ommaviy madaniyat mahsulotlari ko'pincha yoshlarning hissiyotlari orqali ularning ongiga ta'sir ko'rsatishga urinadi. Shuningdek, Sonia

Livingstone raqamli media vositalarining yoshlar ijtimoiylashuvidagi rolga alohida e'tibor qaratadi [Livingstone, 2009, b. 77]. Olimaning fikricha, internet va media vositalari yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va kommunikativ madaniyatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Biroq u raqamli muhit bilan bog'liq xavflarga ham e'tibor qaratib, yoshlarni media tahdidlardan himoya qilish uchun mediasavodxonlikni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, Zamonaviy kunda yoshlarning virtual muhitda haddan tashqari faol bo'lishi ularning real ijtimoiy munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, virtual manipulyatsiya va kiberbosim holatlarining ortishi media ta'limga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Douglas Kellner media madaniyat zamonaviy jamiyat mafkuraviy tizimining asosiy tarkibiy qismiga aylanganini qayd etadi [Kellner, 1995, b. 14]. Olimning fikricha, media mahsulotlari insonlarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy qarashlarini shakllantirishga faol ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli media ta'lim yoshlarni media matnlarning yashirin mafkuraviy maqsadlarini anglashga o'rgatishi kerak. Masalan, ayrim filmlar, reklama mahsulotlari yoki internet trendlarida iste'molchilik madaniyati, individualizm yoki zo'ravonlik elementlari bilvosita targ'ib qilinmoqda. Bunday holatlar yoshlarning ma'naviy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Media ta'limning samaradorligi yoshlarda tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati va ma'naviy refleksiyaning uyg'un shakllanishi bilan bog'liqdir. Chunki mediasavodxon shaxs axborotni nafaqat texnik jihatdan, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham baholay oladi. Shu jihatdan media ta'lim yoshlarni manipulyativ axborotlarga nisbatan ongli qarshilik ko'rsatishga tayyorlovchi muhim ta'limiy mexanizm hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida turli mafkuraviy tahdidlarning kuchayishi media ta'limning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Demak, media ta'lim yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. U yoshlarni axborotni tanqidiy tahlil qilish, media mahsulotlarning yashirin maqsadlarini anglash va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. Natijada yoshlarda axborot xavfsizligi madaniyati shakllanib, ular turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyani egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan zamonaviy jamiyatda insonning ichki ma'naviy barqarorligini saqlab qolish muhim ijtimoiy masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongiga turli xil g'oyaviy ta'sirlarning kuchayishi, virtual kommunikatsiyaning kengayishi va ommaviy madaniyatning global tus olishi sharoitida ma'naviy refleksiya insonning mafkuraviy himoya mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ma'naviy refleksiya insonning o'z ichki dunyosi, qadriyatlari, axloqiy mezonlari va hayotiy maqsadlari ustida mushohada yuritish jarayonidir. Natijada shaxsda o'zini anglash, ma'naviy mas'uliyat va ongli hayotiy pozitsiya shakllanadi. Anthony Giddens zamonaviy jamiyatda inson o'zligini anglash va identifikatsiya muammosi tobora murakkablashib borayotganini ta'kidlaydi [Giddens, 1991, b. 52]. Olimning fikricha, globallashuv sharoitida inson ko'plab axborot oqimlari va turli qadriyatlar ta'siri ostida qolmoqda. Shu sababli inson doimiy ravishda o'z hayoti, qadriyatlari va ijtimoiy o'rnini qayta baholab borishga majbur bo'ladi.

Mazkur jarayon ayniqsa yoshlar orasida yaqqol kuzatilmoqda. Chunki yoshlar virtual makon orqali turli madaniyatlar, qarashlar va mafkuraviy oqimlar bilan muntazam to'qnash kelmoqda. Natijada ularda ma'naviy ikkilanish, qadriyatlar ziddiyati va identiklik inqirozi yuzaga kelishi mumkin. Ma'naviy refleksiya aynan mana shunday murakkab sharoitda insonning ichki barqarorligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Charles Taylor insonning ma'naviy o'zligini anglash jarayoni uning axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq ekanligini qayd etadi [Taylor, 1989, b. 27]. Uning fikricha, inson o'zining ma'naviy mezonlariga tayangan holda hayotiy qarorlar qabul qiladi va shu orqali o'z shaxsiyatini shakllantiradi. Ushbu qarash zamonaviy yoshlar tarbiyasi uchun muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki ma'naviy refleksiya rivojlangan yoshlar turli zararli g'oyalar, manipulyativ axborotlar va destruktiv mafkuraviy oqimlarga nisbatan mustaqil va ongli munosabat bildiradi. Zamonaviy media makonida inson hissiyotlariga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan texnologiyalar tobora kuchaymoqda. Reklama, ommaviy madaniyat, internet trendlar va ijtimoiy tarmoqlardagi ayrim kontentlar insonning ongiga bilvosita ta'sir o'tkazmoqda. Zygmunt Bauman zamonaviy jamiyatni "suyuqlashgan modernlik" tushunchasi orqali izohlab, Hozirgi davrda qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarning beqarorlashayotganini ta'kidlaydi [Bauman, 2000, b. 3]. Olimning fikricha, insonlar tobora qisqa muddatli manfaatlar va tezkor hissiy ehtiyojlarga yo'naltirilmoqda. Bu esa yoshlarning chuqur mushohada yuritish va ma'naviy o'zlikni anglash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ma'naviy refleksiya yoshlarni ommaviy madaniyatning salbiy ta'siridan himoya qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki ma'naviy refleksiya insonni o'z xatti-harakatlari, qarashlari va maqsadlarini tanqidiy baholashga undaydi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda ommalashayotgan ayrim zararli trendlar yoki axloqiy mezonlarga zid kontentlarga nisbatan ongli qarshilik ko'rsatish aynan ma'naviy refleksiya bilan bog'liqdir. Agar insonda ichki ma'naviy nazorat va axloqiy mas'uliyat kuchli shakllangan bo'lsa, u turli manipulyativ ta'sirlarga tez berilib ketmaydi. Martha Nussbaum ta'lim tizimi insonda nafaqat bilim va kasbiy kompetensiyalarni, balki axloqiy tafakkur va insoniy mas'uliyatni ham shakllantirishi kerakligini ta'kidlaydi [Nussbaum, 2010, b. 48]. Olimning fikricha, demokratik jamiyatning barqarorligi insonlarning ma'naviy tafakkuri va tanqidiy mushohada yuritish qobiliyatiga bog'liqdir. Mazkur qarash yoshlar mafkuraviy immunitetini rivojlantirishda ma'naviy refleksiyani naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. Chunki ma'naviy jihatdan barkamol shaxs turli mafkuraviy tahdidlar, yolg'on targ'ibot va axborot manipulyatsiyalariga nisbatan barqaror pozitsiyani saqlab qola oladi. Demak, ma'naviy refleksiya yoshlar mafkuraviy immunitetining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U insonning o'zligini anglash, axloqiy qadriyatlarga tayangan holda qaror qabul qilish va turli mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan ongli munosabat bildirish qobiliyatini shakllantiradi. Shu jihatdan ma'naviy refleksiyani rivojlantirish zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, u yoshlarning ijtimoiy va mafkuraviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasi tobora muhim ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, raqamli kommunikatsiya va virtual media muhitining kengayishi yoshlar ongiga turli mafkuraviy ta'sirlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli mediasavodxonlik va ma'naviy refleksiya yoshlarni axborot tahdidlari hamda manipulyativ ta'sirlardan himoya qiluvchi muhim kognitiv mexanizmlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi yoshlarning axborotni ongli ravishda tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mediasavodxonlik yoshlarning media makondagi faoliyatini ongli ravishda boshqarishga xizmat qiladi. U yoshlarni axborot manbalarini tekshirish, "feyk" xabarlarini aniqlash va media mahsulotlarning yashirin maqsadlarini anglashga o'rgatadi. Natijada yoshlarda manipulyativ axborotlarga nisbatan tanqidiy munosabat shakllanadi. Shu bilan birga, media ta'limning ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash va mafkuraviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, ma'naviy refleksiya yoshlarning ichki ma'naviy barqarorligini shakllantirishda muhim rol o'ynashi aniqlandi. Insonning o'z qadriyatlari, axloqiy mezonlari va ijtimoiy mas'uliyati ustida mushohada yuritishi uning turli yot g'oyalarga nisbatan ongli pozitsiyasini kuchaytiradi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida ma'naviy refleksiya yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash, mediasavodxonlik va ma'naviy refleksiya o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir. Ularning uyg'unligi yoshlarni nafaqat axborotni texnik jihatdan tahlil qilishga, balki uning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy mazmunini ham anglashga yordam beradi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, yoshlarni ongli, mustaqil va ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilishi zarur. Umuman olganda, mediasavodxonlik va ma'naviy refleksiya yoshlar mafkuraviy immunitetini rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi. Ularni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash, ma'naviy barqarorligini mustahkamlash hamda turli destruktiv mafkuraviy tahdidlarga qarshi ongli qarshilik ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur masala zamonaviy pedagogika, falsafa va ijtimoiy fanlarning ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

BIBLIOGRAFIYA

1. McLuhan M. (1964). *Understanding Media: The Extensions of Man*. New York: McGraw-Hill. – 359 b.
2. Postman N. (1985). *Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business*. New York: Penguin Books. – 184 b.

3. Jenkins H. (2006). *Convergence Culture: Where Old and New Media Collide*. New York: New York University Press. – 308 b.
4. Jenkins H. (2006). *Convergence Culture: Where Old and New Media Collide*. New York: New York University Press. – 308 b.
5. Фёдоров А.В. (2007). Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. Москва: МОО ВПП ЮНЕСКО «Информация для всех». – 616 б.
6. Dewey J. (1933). *How We Think*. -Boston: D.C. Heath and Company. – 301 b.
7. Freire P. (1970). *Pedagogy of the Oppressed*. -New York: Continuum. – 183
8. Postman N. (1985). *Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business*. New York: Penguin Books. – 184 b.
9. Hobbs R. (2011). *Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom*. California: Corwin Press. – 232 b.
10. Potter W.J. (2013). *Media Literacy*. -California: SAGE Publications, – 392 b.
11. Livingstone S. (2009). *Children and the Internet*. -Cambridge: Polity Press. – 304 b.
12. Kellner D. (1995). *Media Culture: Cultural Studies, Identity and Politics Between the Modern and the Postmodern*. -London: Routledge. – 357 b.
13. Giddens A. (1991). *Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age*. --Cambridge: Polity Press. – 256 b.
14. Taylor Ch. (1989). *Sources of the Self: The Making of the Modern Identity*. -Cambridge: Harvard University Press. – 601 b.
15. Bauman Z. (2000). *Liquid Modernity*. -Cambridge: Polity Press. – 228 b.
16. Nussbaum M. (2010). *Not for Profit: Why Democracy Needs the Humanities*. Princeton: Princeton University Press. – 184 b.

Инаков Кудратжон Кодиржонович

доктор философии (PhD)

проректор по международным отношениям

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

k.inakov@nuu.uz

(Ташкент, Узбекистан)

ЗНАЧЕНИЕ МЕДИАГРАМОТНОСТИ И ДУХОВНОЙ РЕФЛЕКСИИ КАК СОВРЕМЕННЫХ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА МОЛОДЁЖИ

Аннотация. В условиях усиления различных идеологических воздействий в информационном пространстве особую значимость приобретает формирование у молодёжи навыков критического мышления,

анализа информации и самостоятельного принятия выводов. Некоторые учёные подчёркивают, что медиаграмотность способствует повышению интеллектуального потенциала молодёжи и развитию их информационной культуры. Другие исследователи отмечают, что неконтролируемая цифровая среда может усиливать духовное безразличие и идеологическую восприимчивость молодёжи. В связи с этим в данной статье раскрывается роль медиаграмотности и духовной рефлексии как познавательных механизмов формирования идеологического иммунитета молодёжи.

Ключевые слова: медиаграмотность, духовная рефлексия, идеологический иммунитет, критическое мышление, информационная безопасность, цифровое общество.

Inakov Qudratjon Qadirjonovich

doctor of Philosophy (PhD)

Vice Rector for International Relations, Mirzo Ulugbek National University of
Uzbekistan

k.inakov@nuu.uz

(Tashkent, Uzbekistan)

THE IMPORTANCE OF MEDIA LITERACY AND SPIRITUAL REFLECTION AS MODERN COGNITIVE MECHANISMS FOR DEVELOPING YOUTH IDEOLOGICAL IMMUNITY

Abstract. In the context of increasing ideological influences within the information space, the development of critical thinking, information analysis, and independent conclusion-making skills among young people is becoming increasingly important. Some scholars emphasize that media literacy contributes to enhancing the intellectual potential of youth and improving their information culture. Other researchers note that an uncontrolled digital environment may strengthen spiritual indifference and ideological susceptibility among young people. Therefore, this article reveals the role of media literacy and spiritual reflection as cognitive mechanisms in the formation of youth ideological immunity

Keywords: media literacy, spiritual reflection, ideological immunity, critical thinking, information security, digital society.

